

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti,
Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrası

Dos. Tulaev Mirzakul Salamovich

MOLIYAVIY HISOBOT KONSEPSIYALARI (MHK)

Moliyaviy hisobot konsepsiyalari tomonidan quyidagilar aniqlanishi lozim:

- Moliyaviy hisobot maqsadlari;
- Buxgalteriya axborotining sifat tavsiflari;
- Moliyaviy hisobot elementlari;
- Moliyaviy ma'lumotlarni tan olish va o'lchash mezonlari;
- Moliyaviy hisobot prinsiplari.

Moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlari

Moliyaviy hisobotning maqsadi xo'jalik sub'ektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvalidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Biroq moliyaviy hisobot iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilarga zarur bo'lgan butun axborotni o'z ichiga olmaydi, chunki hisobot asosan avvalgi voqealarning natijalarini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotni tuzishning qator maqsadlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Investitsion, boshqaruv, moliya, xo'jalik qarorlarni va kreditlar berish bo'yicha qarorlarni qabul qilish;
2. Xo'jalik sub'ektining kelgusi pul oqimlarini baholash;
3. Xo'jalik sub'ektiga ishonib topshirilgan resurslar, ulardagi o'zgarishlar va majburiyatlarini baholash;
4. Rahbariyat faoliyatini baholash;
5. Haqqoniy aks etirish.

Moliyaviy hisobotlarda sub'ektning o'z majburiyatlarini bajarishi va sarmoyalarni qaytarishi uchun daromad va kelgusida naqd pul tushumlarini olish qobiliyatini prognoz qilishga yordam beradigan axborot aks ettirilishi kerak. Hisobotlar korxonalar rahbarlarining faoliyatini baholash maqsadida ham foydalaniladi. Hisobotlar quyidagi axborotlardan iborat bo'lishi kerak:

- a) korxonaning iqtisodiy resurslari, majburiyatlari va kapitali/sof aktivlari;
- b) korxonaning iqtisodiy resurslari, majburiyatlari va kapitali/sof aktivlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar;
- v) korxonaning iqtisodiy holati.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» qonuniga muvofiq, yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Buxgalteriya balansi - 1-shakl;
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-shakl;
3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - 4-shakl;
4. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot - 5-shakl;
5. Moliyaviy hisobotning tushuntirish xatida izohlar, hisob-kitoblar va boshqalar.

Davriy (oylik, choraklik) hisobotlar tarkibi yillik hisobotdan hisobotlar shakli sonining kamligi bilan farq qilishi mumkin.

Kichik biznes korxonalari 1-shakl va 2-shakllardan hamda moliyaviy hisobotning tushuntirish xatida izohlar, hisob-kitoblar va boshqalardan iborat yillik hisobotlarini yil yakuni bo'yicha moliyaviy yildan keyin yilning 15 fevraligacha taqdim qilishadi.

Bu moliyaviy hisobotlar "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 1-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)ga muvofiq ishlab chiqilgan korxonaning *hisob siyosatiga* muvofiq tayyorlanishi kerak, hamda ularda barcha masalalar bo'yicha shunday moliyaviy axborot berilishi kerakki, u korxonada faoliyati natijalarini to'liq va aniq tushunish nuqtai nazaridan foydalanuvchi uchun muhim ahamiyat kasb etishi kerak.

Buxgalteriya axborotining sifat xususiyatlari

MHK qaror qabul qilish jarayonida buxgalteriya axborotining foydaliligini aks ettiruvchi xususiyatlarini aniqlaydi va belgilaydi. *Tushunarlik, ahamiyatlilik, ishonchlilik va solishtirish imkonining mavjudligi* buxgalteriya axborotining to'rtta asosiy xususiyatidir.

Tushunarlik. Moliyaviy hisobotda keltiriladigan axborot foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

Ahamiyatlilik. Moliyaviy axborotning ahamiyatliligi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojini qoldirishi va operatsion, moliyaviy hamda xo'jalik faoliyatiga doir voqealarga baho berishda ularga yordam berishi lozimligini bildiradi. Axborotning mohiyati va qiymati (muhimligi) uning ahamiyatliligiga ta'sir qilishi mumkin.

Buxgalteriya axborotining ahamiyatlilik darajasini sifatning quyidagi uch jihati yordamida o'lchash mumkin:

- Ayni paytlilik.
- Istiqbol qilishning muhimligi.
- Teskari aloqa.

Ishonchlilik. Axborotda muhim xato yoki g'arazlilik bo'lmasa va foydalanuvchilar unga tayanishlari mumkin bo'lsa, ishonchli hisoblanadi.

Operatsiyalar yoki voqealarning ishonchliligi odatda dastlabki hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi lozim.

U axborotning asosiy mazmunini to‘g‘ri ochib berishi kerak. Axborotning ishonchliligi uchta mezonga muvofiq tekshiriladi:

1. To‘g‘ri aks ettirilishi, *ba’zida* ishochlilik *deyiladi*.
2. Tekshirish imkoniyatining mavjudligi - aniqligi tekshirilishi mumkin bo‘lgan dastlabki hisob hujjatlari.

3. Moliyaviy hisobot sub’ektning moliyaviy ahvolini, uning faoliyati moliyaviy natijalarini va pul mablag‘larining harakatini xolisona ko‘rsatishi lozim.

Xolislik prinsipiga erishish uchun har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish chog‘ida BHMS va buxgalteriya hisobi asosiy prinsiplarini qo‘llanishga majburdir.

Solishtirish imkonining mavjudligi - bu bir turdagi axborot ichidagi emas, balkim ikki xil turdagi axborot orasidagi munosabatga xos belgidir. U foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotlarning ikki to‘plamida berilgan axborotlar orasidagi o‘xshashliklar va farqlarni topish imkoniyatini beradi. Solishtirish imkoni mavjudligining ikki tomoni bor - buxgalteriya hisobining yagona siyosatidan yildan-yilga foydalanilishni belgilab beradigan ketma - ketlik, hamda o‘xshash xo‘jalik operatsiyalarni qo‘llaydigan va o‘xshash sharoitda ishlaydigan korxonalarining buxgalteriya hisobining bir xil prinsiplaridan foydalanishlarini bildiradigan birdamlik.

Korxonalar moliyaviy hisobotlarining elementlari

Elementlar - bu moliyaviy hisobotlarga kiritilishi lozim bo‘lgan moddalarning guruhlaridir. Moliyaviy hisobotning konsepsiyasi quyida keltirilgan 3-jadvalda ko‘rsatilganidek, ettita elementni (xalqaro amaliyotda foyda va zarardan tashqari beshta elementni) aniqlab beradi. Birinchi uch guruh elementlari (aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital) to‘g‘ridan - to‘g‘ri balansga, keyingi to‘rt element esa (daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar) moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga tegishlidir.

3-jadval

Moliyaviy hisobotlar elementlari

Balansning elementlari	Xo‘jalik operatsiyalarining xususiyatlari
<p>1. Aktivlar - bu o‘tgan xo‘jalik operatsiyalari va hodisalar natijasida xo‘jalik sub’ekti tomonidan nazorat qilinadigan iqtisodiy resurslar bo‘lib, ular kelajakda foyda keltirishi ehtimoliga ega.</p>	<p>1. Aktiv sifatida ko‘rib chiqilayotgan resurslar quyidagilarga mos bo‘lishi shart:</p> <p>a) Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kerak;</p> <p>b) Nazorat qilinishi kerak. Egallik huquqiga asosan xo‘jalik sub’ektiga tegishli bo‘lishi kerak (ular ishlab chiqarishda erkin foydalanilishi yoki istisno qilinishi mumkin);</p> <p>v) Oldingi xo‘jalik operatsiyalarining natijalari bo‘lishi kerak (ya’ni joriy vaqtda zahiralarda sifatida haqiqatdan</p>

	ham mavjud bo'lishlari kerak, yoki ishlab chiqarishda, yaratishda yoki yo'lda bo'lishlari kerak).
2.Majburiyatlar - bu xo'jalik quyidagilarga o'tgan xo'jalik operatsiyalari va hodisalarni amalga oshirish natijasidagi majburiyatlari bo'lib, ularni hisob-kitob qilish aktivlarning topshirilishi yoki ishlatilishiga, xizmatlar-ning ko'rsatilishi, yoki boshqa kelgusi iqtisodiy foydaning kamayishiga olib kelishi mumkin.	2. Ko'rib chiqilayotgan majburiyatlar quyidagilarga mos bo'lishlari shart: a) Oldingi xo'jalik operatsiyalardan kelib chiqishlari kerak; b) Summalari nizoli bo'lishi kerak emas; v) Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kerak bo'lgan aktivlarni o'tkazishlari kerak.
3.Xususiy kapital - bu majburiyatlar chiqarib tashlangandan keyingi xo'jalik sub'ektining aktivlardagi egalik ulushidir. Xususiy kapital o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydani oladi.	3.Hisobotdagi aktivlardan majburiyatlarni ayrib tashlangandan keyingi qoldiq summani tashkil qiladi.
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot elementlari	
4.Daromadlar - bu sub'ektning xo'jalik faoliyati natijasida, odatda, ijara haqi, foizlar, litsenziya to'lovlari va dividendlar shaklida daromad keltiradigan faoliyat, ya'ni tovarlarnig sotilishi, xizmatlarning ko'rsati-lishi yoki boshqa shaxslarning xo'jalik sub'ek-tining resurslaridan foydalanishi natijasida aktivlarning kelib tushishi yoki majburiyat-larning kamayishi orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning ko'payishidir.	4.Xo'jalik operatsiyalaridan olinadigan daromadning ikki muhim xususiyat: a) investitsion yoki favqulodda xo'jalik operatsiyalari natijasida emas, balkim daromad olishga qaratilgan korxonaning asosiy faoliyati natijasidagi xo'jalik operatsiyalaridan olinadigan daromad; b) daromad olish bo'yicha asosiy faoliyat takrorlanadigan va uzluksiz jarayondir.
5.Xarajatlar - bu foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarni o'z zimmasiga olish orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.	5.Xarajatlarning muhim xususiyati shundaki, ular korxonaning daromad olishi jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak. Xarajatlar deb, klassifikatsiya qilinmaydigan chiqimlar, yoki aktivlar sifatida (kelgusida iqtisodiy foyda keltirish imkoniyati bor), yoxud zararlar sifatida (daromad bermaydigan), yoki egalariga ularga tegishli bo'lgan kapitaldagi ulushining to'lovi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

<p>6.Foyda - bu xo‘jalik sub‘ektiga ta‘sir etadigan asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat, hodisalar, sharoitlar natijasida kapitalning ko‘payishi bo‘lib, xususiy kapitalga to‘lanadigan badallar bundan mustasnodir.</p>	<p>6. Xo‘jalik operatsiyalarining xususiyati shunga shubha tug‘dirmasligi kerak-ki, bu: (1) asosiy faoliyatdan daromad olish bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari va (2) Ustav kapitaliga qilinadigan badallar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyasidir.</p>
<p>7.Zararlar - bu asosiy faoliyat va barcha boshqa xo‘jalik operatsiyalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitali-ning kamayishi bo‘lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalining taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.</p>	<p>7.Xo‘jalik operatsiyalarining xususiyati shunga shubha tug‘dirmasligi kerak-ki, bu: (1) chiqimlar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari va (2) kapitalni taqsimlash bo‘yicha xo‘jalik operatsiyasidir.</p>

E’tirof etish va o‘lchash mezonlari

E’tirof etish mezonlari

E’tirof etish - bu moddaning moliyaviy hisobotga kiritilishi jarayonidir. E’tirof etilgan moddaga nom va miqdoriy o‘lcham beriladi: E’tirof etish barcha korxonalaridagi moliyaviy hisobotlarning barcha elementlariga taalluqli bo‘ladi. Element hisobda quyidagi hollarda e’tirof etilishi kerak (xalqaro standart bo‘yicha):

1. Element o‘lchash uchun maqbul asosga ega bo‘lishi kerak va belgilangan pul miqdorini asoslangan ravishda baholash mumkin, va
2. Kutilayotgan daromadlar va xarajatlar haqidagi moddalar ehtimollik darajasiga ega bo‘lishi kerak.

Milliy standart bo‘yicha e’tirof etilishi:

1. Element o‘lchash uchun maqbul asosga ega bo‘lishi kerak;
2. Belgilangan pul miqdorini asoslangan ravishda baholash mumkin;
3. Kutilayotgan daromadlar haqidagi moddalar ehtimollik darajasiga ega bo‘lishi kerak;
4. Kutilayotgan xarajatlar haqidagi moddalar ehtimollik darajasiga ega bo‘lishi kerak.

O‘lchash mezonlari

O‘lchash yoki hisoblash mezonlari to‘rtta miqdoriy ko‘rsatkichlarga asoslanadi va tegishli tartibda hisobga olingan moddalar tushunarlilik, ahamiyatliligi, ishonchliligi va shuningdek, takkoslanuvchanligi bilan farq qiladi deb faraz qilinadi:

1. Elementning aniqlanishi. Modda moliyaviy hisobotning elementi ta‘rifiga mos kelishi lozim.
2. O‘lchanuvchanlik. Modda aniq o‘lchanishi mumkin bo‘lgan mos keluvchi tavsifga ega.
3. Dolzarblik. Moddada mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta‘sir etishga qodir.
4. Ishonchlilik. Moddada mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar ishonchli, betarafli va tekshirish qobiliyatiga ega hisoblanadi.

Baholash mezonlari

Baholash - bu moliyaviy hisobotlarda hisobga olinadigan moddalarning qiymatini aniqlash jarayonidir.

Moliyaviy hisobot prinsiplari

Konseptual tuzilmaga rioya qilish uchun buxgalterlar ma'lum bir qo'llanmalardan foydalanadilar. Ularga muhit prinsiplari (A), sotish prinsiplari (B) hamda cheklov prinsiplari (V) kiradi.

A. Muhit prinsiplari

Muhitning to'rt asosiy prinsiplari, ya'ni *alohida xo'jalik sub'eti, davomiylik, baholash va davriylik*, buxgalteriya hisobi, o'lchash va hisobotga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Alohida xo'jalik sub'ekti prinsipi. Buxgalteriya hisobi o'ziga xos xususiyatli hamda bir-biridan alohida bo'lgan xo'jalik sub'ektlari bilan ishlaydi. Ularning har biri o'z egalari va boshqa tashkilotlardan alohida va mustaqil bo'lgan buxgalteriya hisobi birligi sifatida ko'rib chiqiladi; misol uchun, korporatsiya va uning aksiyadorlari alohida shaxslardir.

Davomiylik prinsipi ko'pincha doimiy ahamiyatga ega bo'lgan prinsip deb yuritiladi. Bu prinsipga ko'ra, korxonaning yaqin kelajakda tugatilishi nazarda tutilmaydi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi korxonalarining chegaralanmagan davr davomida faoliyat ko'rsatishini nazarda tutadi, degan ma'no bu prinsipdan kelib chiqmaydi.

Baholash prinsipiga ko'ra, tashkilotning iqtisodiy faoliyatini baholash va bu borada hisobot takdim etish pul birligi orqali ifodalanishi kerak.

Davriylik prinsipi. Alohida olingan korxonalar faoliyatining natijalarini, ish nihoyasiga etmaguncha, shubhasiz aniqlik bilan istiqbol etish mumkin bo'lmasa-da, davriy moliyaviy hisobotlar baribir zarurdir, chunki ulardan foydalanuvchilar vaqtida etkazilgan moliyaviy axborotga muhtojdir.

B. Sotish prinsiplari

Ish yuritish darajasida, hisobotlarni tayyorlovchi shaxslar tushumlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga olish va shu to'g'risida hisobotlarni tayyorlashda sotish prinsiplaridan foydalanadilar. Sotish prinsiplariga quyidagilar kiradi: *tannarx, hisoblash, muvofiqlik hamda to'liq ochib berish*. Ushbu prinsiplar hisob usullariga asoslangandir. Shuni esda tutish kerak-ki, hisobga olish usuli - bu moliyaviy hisobot elementlarini schyotlarda hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning rasmiy jarayonidir.

Tannarx prinsipi birlamchi tannarx bo'yicha baholash mezonini ifoda qiladigan yana bir usul bo'lib, u hisobga olishda xarajatlarni e'tirof etish uchun pul bilan ifodalashdan foydalanilishini ko'rsatadi; bu schyotlarda yoziladigan hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladigan miqdordir. Tannarx prinsipi xo'jalik operatsiyalari va voqealarini joriy hisobga olishda qo'llaniladi.

Hisoblash prinsipi daromadni hisobga olishda hisoblash metodidan foydalanishni talab qiladi. U hisobga olish mezonlariga muvofiq daromadni qachon hisobga olish va uni qachon hisobotlarda aks ettirish kerakligini belgilaydi.

Hisoblash prinsipiga muvofiq, tovarlar sotilishidan olingan daromad, xaridor ushbu tovarlarning egasi bo'lganda, ya'ni egalik qilish huquqi bilan bog'liq bo'lgan barcha risklar va mukofotlar unga o'tgan paytda hisobga olinadi. Sotuvchi o'z majburiyatlarini bajarmaguncha, daromad hisobga olinmasligi lozim. Masalan, sotuvchi mahsulot ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatishi kerak yoki boshqa korxonaga yoki jismoniy shaxsga mulkdan yoki pul mablag'laridan ma'lum bir muddat davomida foydalanishga ruxsat berishi kerak. Yangi sharoitda doimo eng birinchi o'rinda berilishi kerak bo'lgan savol «Sotuvchi o'z majburiyatlarini bajardimi?» degan savoldir. Hisoblash prinsipi hisobga olishda kassa tushumlari usulini emas, balki hisoblash usulining qo'llanilishini talab qiladi. Shuning uchun nasiyaga tovarlarni sotish yoki xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tuzilgan bitimlar odatda, pul mablag'lari haqiqatda schyotga kelib tushgan davrda emas, balkim ana shu xo'jalik operatsiyalari yoki xizmat sodir bo'lgan davrdagi daromad sifatida hisobga olinadi.

Xarajat va daromadlarning *muvofiqlik prinsipi* buxgalteriya hisobining hisoblash usuli bilan ko'zda tutiladi, biroq bu holda buxgalteriya hisobotini takdim etishda xarajatlar aks ettiriladigan hisobot davri muhim bo'ladi. Ma'lum bir hisobot davri uchun tushumlar hisoblash prinsipiga mos ravishda, buxgalteriya hisobotini takdim etishda tushumlarni kiritish uchun hamma sharoitlar mavjud bo'lganda, hisobga olinishi kerak. Daromadni olish jarayonida vujudga keladigan xarajatlar daromad hisobga olingan davrda aks ettirilishi kerak. Agar daromadlar joriy hisobot davrida olingan bo'lsa, yoki kelgusi hisobot davrida hisobga olinishi zarur bo'lsa, unda u yoki bu daromadlarga tegishli bo'lgan xarajatlar ham joriy yoki kelgusi davrda hisobga olinishi kerak. Xarajatlar, xuddi daromadlar kabi moliyaviy hisobotda bir davr uchun aks ettiriladi.

Hisobda sof foyda hisoblash prinsipi hamda xarajatlar va daromadlarning mos kelish prinsipini bir vaqtda qo'llagan holda hisoblanadi.

To'liq yoritib (ochib) berish prinsipi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda korxonaning iqtisodiy holati bo'yicha barcha kerakli axborot berilishini talab qiladi.

B. Cheklov prinsiplar

Cheklovchi prinsiplar ham moliyaviy hisobotda o'zgarishlarga olish kelishi mumkin. Cheklovchi prinsiplarga quyidagi prinsiplar kiradi: *tannarx - daromad, muhimlik, tarmoq xususiyatlari, konservatizm.*

Tannarx-daromad. Tannarx-daromadga bog'liq bo'lgan cheklovlar ko'pgina hollarda buxgalteriya hisobining ma'lumotlariga ta'sir ko'rsatadilar. Bunday asosiy mazmun shundaki, foydalanuvchilarning maxsus axborotdan oladigan daromadlari, ularning shu axborotni qo'lga kiritish xarajatlaridan yuqori bo'lishidadir.

Muhimlik. Axborotning ma'lum bir qismi yoki jami axborot shunday vaqtda muhim bo'ladi, agarda shu axborotning berilmasligi yoki uning noto'g'ri talqin qilinishi qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatsa yoki mazkur qarorni o'zgartirishga ehtimoli mavjud bo'lsa.

Tarmoq xususiyatlari. Buxgalteriya hisobi asosiy e'tiborni foydalilikka qaratganligi uchun, tarmoq (masalan, kommunal xizmat ko'rsatish, temir yo'l, bank xizmati, sug'urta) faoliyatidagi xususiyatlar buxgalteriya hisoboti prinsiplarini qo'llashda tanlangan istisnolar qilishni talab etishlari muqarrar.

Konservatizm. Konservatizm prinsipi bo'yicha cheklovga ko'ra, konseptual prinsiplar va qo'llanilish prinsiplarini bir xilda qoniqtiradigan ikki alternativa mavjud bo'lsa, u holda sof foyda va/yoki aktivlar jami summasiga eng kam ijobiy ta'sir ko'rsatadigan alternativa tanlanishi lozim. Daromadlarni baholashning ikki alternativ usuliga yo'l qo'yilgan bo'lsa, hisobotni takdim etishda baholangan summaning eng kichigi aks ettirilishi kerak. Qarzlarning darajasi haqida gap borar ekan, unda qarzlarning ikkita alternativ darajasidan eng katta bo'lgan miqdor hisobotda aks ettirilishi kerak. Daromad, xarajat, foyda va zararlarning ikkita to'g'ri keladigan alternativ miqdoridan birini tanlashda asoslangan shubhalar mavjud bo'ladigan bo'lsa, sof daromadga eng kam ijobiy ta'sir ko'rsatadigan miqdor ko'rsatilishi kerak.

1. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*.

2. Тулаев, М. С. (2023). ИЖАРА ОЛИНГАН АСОСИЙ ВОСИТАЛАР ҲИСОБИ–МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАСИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 3-15.